



# Mehnat Va Mehnatsevarlikka Oid Maqollarning Lingvomadaniy Tadqiqi

*Akhmedova Sarvinoz Hikmatovna*

*f.f.f.d., Buxoro davlat universiteti, sarvi5335@gmail.com*

*Bafoyeva Dilbar Dilmurod qizi*

*1-bosqich magistranti Buxoro davlat universiteti, dilbarbafoyeva@gmail.com*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida frazeologik birliklar, ya'ni maqol va matallar talqini va ifodasi o'rganildi. Maqollarning bir tildan ikkinchisiga tarjima qilish yoki muqobil ekvivalent topish jarayonida yuzaga keladigan muammolar misollar orqali tahlil qilindi. Shuningdek, ikki noqardosh millat ingliz va o'zbek xalq maqollarining lingvomadaniy jihatdan bog'liqlik hamda farqli jihatlari o'rganildi.

**Kalit so'zlar:** Maqol, matal, frazeologiya, mehnat, mehnatsevarlik, folklorshunoslik, lingvomadaniy tadqiq.

Maqol xalq og'zaki ijodi janri – qisqa va lo'nda, obrazli, grammatik va mantiqiy tugal ma'noli hikmatli ibora hamda ular muayyan ritmik shaklga ega. Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg'ulari, ijobiy fazilatlarini mujassamlashgan. O'zbek va ingliz tilidagi maqollarni hajm jihatidan o'rganib borish jarayonida aynan mehnat va mehnatsevarlik haqidagi maqollarning ko'proq uchrashiga guvoh bo'ldik. Buning turlicha sabablari mavjud. Masalan, mehnat qilib obro' topish, o'z ehtiyojlarini qoplay bilish kabi masalalar nafaqat qadim zamonlarda, balki bugungi kunda ham o'z isbotini topmoqda. Har qanday yutuqning zaminida qattiq mehnat, tirishqoqlik va kuchli istak yotadi. Mehnat qilish va mehnatsevar inson bo'lish kabi masalalarga ingliz va o'zbek xalqi tomonidan jiddiy qaralishi o'zbek va ingliz maqollarida o'z aksini topadi. Aynan shu mavzudagi maqollarni tahlil qilish jarayonida, hamisha mehnatsevarlik ijobiy baholanganligini, dangasalik va ishyoqmaslik esa qattiq qoralanishi kabi masalalarning yoritilishini kuzatamiz. Quyida ushbu mavzuga oid ayrim ingliz maqollarining o'zbek tilidagi ma'nolarini ko'rib chiqamiz hamda ularni tahlil qilamiz.

**The labourer is worthy, of his hire**

**Ishlab topganing osh, ishlaymay topganing tosh**

Bu maqolda mehnatsevarlik keng ko'lamda ochib berilgan, ya'ni inson mehnat qilsa, halol ishlab topsa bu topgani unga hamisha yaxshilik keltiradi, oilasi, farzandlarini halol luqma berib boqish asnosida katta hikmat yotadi. Aksincha, ishlaymay turib, birovning mehnati evaziga kun ko'radigan, boshqalarning mehnatini o'zlashtirib oladigan kimsalarning non-oshi halol, yegan-ichganida halovat bo'lmaydi.

**He that is afraid of wounds must not come near a battle.**

**Chumchuqdan qo'rqqan tariq ekmas, Chigirtkadan qo'rqqan — ekin.**

Ushbu maqol zamirida ham chuqur ma'no yotgan bo'lib, unda dangasa insonlarning portreti yaqqol ochib beriladi.

**Youth will serve**

**Yosh kelsa — ishga, Qari kelsa — oshga.**



Ushbu maqolda yoshi ulug'lar hamda yoshlar o'rtasidagi hurmat-izzat masalalari ochib berilgan. Ingliz tilida berilgan muqobilida **Youth will serve** tarzida berilgan bo'lib, bu ingliz madaniyatiga xos tarzida ko'rsatilgan. Ya'ni maqolning ikkinchi qismi berilmagan holda uning butun ma'nosi anglashiladi. O'zbek madaniyatida esa yoshi ulug'lar har doim hurmatda bo'lgan holda, ular, jumladan, mahalla guzarlarida hasharlarga chaqirilgan aholi vakillari orasida yoshi kichiklar har doim yoshi kattalarni hurmat qilib, to'rdan joy ko'rsatib, ularning duolarini olgan holda barcha ishlarni o'zlari ado etishlari ochib beriladi.

Yuqorida ko'rinib turganidek, mehnat va mehnatsevarlik haqidagi maqollarning o'zbek va ingliz tillarida mavjudligi har ikkala xalqda ham ushbu fazilatlar kuchli ekanligini ko'rsatadi. Aksariyat maqollar ikki qismdan tashkil topgan bo'lib, bir qismi tasviriy mohiyatga ega, ikkinchi qismi xulosadan iboratdir. Jumladan, yuqorida berilgan "You will serve" maqoli bunga yaqqol misol bo'ladi. "**Words are but wind**" maqolini o'zbek tiliga tarjima qilganda "**Gap bilguncha ish bil**" ma'nosini beradi. Bu maqol orqali ko'p gapirgandan ko'ra ish bilan mashg'ul bo'lish kerakligi, behuda va keraksiz so'zlar o'rniga foydali harakat qilish ustunligi uqtiriladi.

Bir qismli maqollarga nisbatan ko'p qismli maqollar o'zgarishga moyilroqdir. Sababi ba'zi holatlarda maqol aytuvchining unda ifodalanayotgan ma'noni to'laligicha tushunib yetmasligi yoki eshitganini eslay olmasligi natijasida o'zicha qo'shimcha so'zlar yoki izohlar qo'shishi tufayli maqolning mazmuniga yoki tuzilishiga jiddiy zarar yetkazilishi mumkin. Bunday vaziyatda o'sha maqolda asosiy fikrni tashuvchi so'zlardan biri tushirib qoldirilishi mumkin. Binobarin, maqollarni aytish va tinglash ham alohida e'tibor va ma'suliyatni taqozo etadi. Aks holda beparvolik tufayli maqolning asl ma'nosiga putur yetkazilib, kelajak avlodga noto'g'ri talqinda o'tib qolishi va asl ma'nosiga nisbatan zid ma'noda qo'llanilishi mumkin. Masalan:

**Work shall not eat,**

**He that will not.**

**Ishlamagan — tishlamas,**

**Ishyoqmasga kun kulmas.**

Ahamiyatli tomoni shundaki, maqol bugungi kunda ham har ikkala xalq orasida juda faol hisoblanadi. Buni nafaqat kundalik turmushimizda ishlatishimiz balki badiiy asarlardagi chiroyli ishtirokini ham ko'rishimiz mumkin.

Masalan: "E-ha, uka, usta akang, oyog'ida g'irch-g'irch xrom etik, egnida ofitserlar kiyadigan sherst gimnastyorka, mototsiklni minib, Berlin ko'chalaridan o'tgan. Xa!.. Ammo lekin, uka, buning hammasi hunar orqasida bo'ldi. Hunar bo'lmasa, bunaqa soqolu bunaqa izzat-ikrom qayoqda. Ha, ota- bobolarimiz: "Bir yigitga yetmish ikki hunar oz", deb bekor aytishmagan ekan.

Xulosa qilib aytganda, ingliz va o'zbek maqollarida xalqning o'tmishidan bugungi kunigacha bo'lgan barcha millatga xos urf-odatlar o'z aksini topgan va xalq o'g'zaki ijodining nodir namunalari sifatida maqollar bu vazifani bajarishda yetakchilik qiladi. O'zbek va ingliz xalq maqollarining lingvomadaniy jihatdan xususiyatlarini o'rganishda o'zbek va ingliz maqollari bu ikki xalqning o'ziga yarasha o'xshash va farqli tomonlarini ko'rsatib bera oladi.

## REFERENCES

1. Abdullayev X.D. Xalq maqollarining "Qutadg'u bilig" poetikasidagi o'rni va badiiy-estetik funksiyalari: Filol. fan. nomzodi ...dis. T., 2005. – 152 b.
2. Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии.– М.: 1961. – 236 ст.
3. Аникин В.П. Мудрость народов // Пословицы и поговорки народов востока. – М.: Наука, 1961. – 76 с.



4. Атаханова Г.Ш. Номинации “возраст человека” в когнитивно-прагматическом и лингвокультурологическом аспектах (на материале англ. языка): Автореф. дис.... канд.филол.наук. – Т. 2006. – 20с.
5. Arora, S. The Perception of Proverbiality. De Proverbio. 1984. – 244p.
6. Marvin, D.E. Antiquity of Proverbs. - New York and London: G.P Putnam Sons, 1922. –103 p.
7. Madayev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. – T.: Sharq, 2010. –207 b.
8. Yuldasheva Feruza Erkinovna. (2022). The Principle of Politeness in the English and Uzbek Languages. Eurasian Research Bulletin, 6, 65–70. Retrieved from <https://www.geniusjournals.org/index.php/erb/article/view/799>
9. Umurova, K. (2018). Making critical thinking intuitive in EFL classes: using drama, examples, and images. *Проблемы и достижения современной науки*, 1(1), 43-47.
10. Hakimovna, U. X. (2019). Lexico-semantic group of the verb “to break” in modern english. *Indonesian Journal of Innovation Studies*, 8.
11. Yuldasheva, F. (2023). Этические Проблемы В Творчестве Алишера Навои. Центр Научных Публикаций (buxdu.Uz), 31(31). Извлечено от [https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/9271](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/9271)
12. Yuldasheva, F. (2021). Issues in Creating Corpus for Pedagogy. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (Buxdu.Uz), 5(5). Извлечено От [https://Journal.Buxdu.Uz/Index.Php/Journals\\_Buxdu/Article/View/2589](https://Journal.Buxdu.Uz/Index.Php/Journals_Buxdu/Article/View/2589)
13. Yuldasheva, F. (2022). Expressions Of Linguistic Politeness. Центр Научных Публикаций (Buxdu.Uz), 14(14). Извлечено От [https://Journal.Buxdu.Uz/Index.Php/Journals\\_Buxdu/Article/View/6769](https://Journal.Buxdu.Uz/Index.Php/Journals_Buxdu/Article/View/6769)